

## YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR

Nazirov Jaloliddin Shuxratjon o'g'li

Turan xalqaro universiteti

(Biznes boshqaruv fakulteti) talabasi

Adashaliyev Miraziz Mirzohidjon o'g'li

Turan xalqaro universiteti

(Biznes boshqaruv fakulteti) talabasi

miraziz0577@gmail.com

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada “Yashil” iqtisodiyotning yo‘nalishlaridan biri “Yashil” logistika haqida so‘z yuritiladi. Yashil logistika iqtisodiyotda qanday o‘rin egallaydi uning oddiy logistikadan farqi nimada, uning afzalliklari va kamchiliklari haqida so‘z yuritiladi. Hamda transmilliy korporatsiyalar qanay kompaniyalar va qanday kompaniyalarni transmilliy korporatsiyalarga kirishini ko‘rib chiqamiz, shuningdek ularning logistikaga qo‘shgan xissalari va yashil iqtisodiyot bo‘yicha qanday amaliy ishlari olib borganligi bayon qilinadi. Ushbu maqola orqali yashil logistik korporatsiyalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz va bu yo‘nalishda kamchilik va to‘siqlarga yechimlar beramiz.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, yashil logistika, transmilliy korporatsiya, texnika-texnologiyalar, yashil biznes, bulutli xisoblash, infratuzulma, investitsiya, barqaror rivojlanish.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается одно из направлений «зелёной» экономики — «зелёная» логистика. Раскрывается роль зелёной логистики в экономике, её отличие от обычной логистики, а также преимущества и недостатки. Также анализируется понятие транснациональных корпораций, какие компании относятся к ним, их вклад в развитие логистики и практическая деятельность в области «зелёной» экономики. В статье представлены сведения о

зелёных логистических корпорациях, а также предложены решения существующих проблем и препятствий в этой сфере.

**Ключевые слова:** Зелёная экономика, зелёная логистика, транснациональная корпорация, техника и технологии, зелёный бизнес, облачные вычисления, инфраструктура, инвестиции, устойчивое развитие.

### Annotation

This article discusses *Green Logistics*, which is one of the main directions of the *Green Economy*. It explains the role of green logistics in the economy, how it differs from conventional logistics, and highlights its advantages and disadvantages. The article also examines what transnational corporations are, which companies belong to this category, and their contributions to logistics as well as their practical efforts in promoting the green economy. Through this article, readers will gain knowledge about green logistics corporations and possible solutions to existing challenges and obstacles in this field.

**Keywords:** Green economy, green logistics, transnational corporation, technology, green business, cloud computing, infrastructure, investment, sustainable development.

So‘nggi yillarga kelib global iqlim o‘zgarishlari va ekologik muammolarning keskinlashuvi natijasida “Yashil” logistika konsepsiyasi transmilliy korporatsiyalar faoliyatida muhim omilga aylanmoqda. Hozirgi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida umuman olganda global iqtisodiyotda logistikaning roli katta. Keling dastlab logistika tushunchasi haqida so‘z yuritamiz. “Logistika”— tovar va ma’lumotlar oqimini ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan barcha bosqichlarida boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Logistikaning maqsadi xarajatlarni kamaytirish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdir.

Iqtisodiyotda logistikadan foydalanish ushbu atama paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan. Qadim zamonlarda logistika qo'shinlar uchun yuklarni tashish va tarqatish bilan bog'liq edi. Rim imperiyasida harbiy yurishlarni ta'minlash va moddiy-texnik ta'minoti bilan shug'ullanish uchun maxsus logistika bo'linmalari yaratilgan. O'zining zamonaviy ko'rinishida logistika 20-asrda tovarlarni ishlab chiqarish va taqsimlash ko'lamining oshishi tufayli rivojlana boshladi. 20-asrning 50-60-yillarida AQSHda logistika alohida fan sifatida qarala boshlandi va birinchi o'quv dasturlari yaratildi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab logistika global biznesga kira boshladi va ta'minot zanjirlarining ajralmas qismiga aylandi. 90-yillarda logistika va ta'minot zanjirini boshqarish sohasida yangi texnologiyalar ishlab chiqildi, bu butun dunyo bo'ylab biznesning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, logistika atama paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan va uning biznes uchun ahamiyati va ahamiyati hozirgi vaqtda o'sishda davom etmoqda.<sup>1</sup> Qisqacha qilib aytganda logistika dunyo iqtisodiyotida ta'minot zanjirini boshqaradi, bunga axborot va ma'lumotlarni yetkazish, tovar mahsulotlarni yetkazish va shunga o'xshash yo'nalishlarni uzluksizligini ta'minlaydi.

Hozirda "Yashil" iqtisodiyotda rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bu "Yashil" logistikadir. "Yashil" logistika bu logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali iste'molchilarga mahsulotlarni eng minimal xarajatlar evaziga, kelishilgan muddatda yetkazib berish hamda bu bosqichda atrof-muhitga bo'ladigan zararli ta'sirni kamaytirish mezonidir. Ya'ni, bu yerda buyurtmani ham tez, ham arzon, ham ekologiyaga zarar keltirmagan holda yetkazib berish nazarda tutiladi. U chiqindilarni boshqarish, utilizatsiya qilish, qadoqlash, qayta ishlash, energiya iste'molini kamaytirish va hokazolar bilan shug'ullanadigan ta'minot zanjirini o'z ichiga oladi. Bularning bariga logistika xizmatlarini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish evaziga erishish mumkin.<sup>2</sup> Logistikadan "Yashil" logistikaning farqi shundagi yashil logistikada tovarlarni siljitishda ekologik transportlardan foydalanish,

<sup>1</sup> <https://allcargo.market/uz/blog/post/what-is-logistics>

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/uz/news/yashil-logistika-nima-uchun-zaruratga-aylanmoqda>

raqamlashtirilgan texnika va texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat yuritishdir. Ya'ni bu mahsulotlarni ishlab chiqarishdan tortib, iste'molchigacha bo'lgan yetkazib berish jarayonida **atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga** qaratilgan logistika tizimi tamoyillari majmuasidir. Boshqacha qilib aytganda, yashil logistika — bu transport, saqlash, qadoqlash va taqsimlash bosqichlarida **energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish** hamda **uglerod izini** qisqartirishni maqsad qilgan boshqaruv yondashuvidir.

Albatta global iqtisodiyotning rivojlanishida transmilliy korporatsiyalarning ham o'zni katta. Transmilliy korporatsiyalar (TMK) bu bir nechta mamlakatlarda faoliyat yurituvchi, o'z brendiniva mahsulotlarini global miqyosda taqdim etadigan korporatsiyalar. Ular ko'pincha o'z faoliyatlarini ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va marketing sohalarida olib borishadi. Ushbu korporatsiyalar o'z faoliyatini bir nechta mamlakatlarda olib borish orqali nafaqat o'z brendlarini kengaytirish balki joylashgan mamlakatlarning iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega.<sup>3</sup> Kompaniyalar qachon TMK larga aylanadi, qachonki o'z faoliyatining ikki yoki undan ortiq mamlakatda olib borishi, hamda ishlab chiqarishning kamida 10 foizi boshqa davlatda yuritishi va daromadining 25 foizi va undan yuqori qismi faoliyatini yo'lga qo'ygan davlatlarda bo'lishi orqali korxonalar va kompaniyalar TMK larga aylana oladi. Ularga misol tariqasida dunyo bo'yicha yirik ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korporatsiyalar; Coca-cola, Pepsico, Apple, Samsung, Microsoft, KFC, Amazon, Tayota Motor, DHL, FedEx Corp, CEVA Logistics, Honda Motor, John Deere, General Motors, Nestle, va yana shularga o'xshash korporatsiya va kompaniyalarni misol qilishim mumkin. Bu yirik transmilliy korporatsiyalar orasida yirik logistik kompaniyalarni "Yashil" iqtisodiyotda faoliyatlari haqida so'z yuritsak, "Yashil" iqtisodiyot atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan tamoyillar majmuidir. Bu model uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omildir.<sup>4</sup> Misol uchun, Amazon kompaniyasi oladigan bo'lsak.

<sup>3</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/YO'ITJ++1017%20(1).pdf

<sup>4</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/ZDAF+0112.pdf



Amazon kompaniyasi yer yuzida global savdo aylanmasida o'zining mustaxkam o'rniga ega. Kompaniya o'zining faoliyatini 1994-yilda Jeff Bezos tomonidan asos solingan bo'lib, dastlab oddiy onlayn kitob do'koni bilan o'z faoliyati boshlagan bo'lsa, hozirga kelib elektron savdo, bulutli hisoblash va raqamli translyatsiya sohalarida faoliyat yuritadi. Hozirgi kunda kompaniya 200 dan ortiq davlatda o'z faoliyatini olib boradi, 2025-yil holatiga ko'ra kompaniyada jami hisobda 2 milliondan ortiq hodim ishlaydi. Bular esa Amazonni dunyodagi yirik va qimmat kompaniyalar qatorida ekanligini ko'rsatadi.

Amazon yashil iqtisodiyot bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda xususan kompaniyasi so'nggi yillarda ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dunyodagi eng faol transmilliy korporatsiyalardan biriga aylandi. Kompaniya 2019-yilda **“The Climate Pledge”** tashabbusini boshlab, 2040-yilgacha butun operatsiyalarida **uglerod chiqindilarini nol darajaga yetkazish (“net-zero carbon”)** maqsadini qo'ydi. Bu tashabbus orqali Amazon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Parij kelishuvini 10 yil oldin bajarishni o'z zimmasiga oldi.<sup>5</sup> Yashil iqtisodiyot sohasida kompaniyaning eng katta yutug'i — **qayta tiklanadigan energiya loyihalarining keng miqyosda amalga oshirilganidir**. 2025-yilgacha Amazon o'zining barcha global infratuzilmasini **100% qayta tiklanadigan elektr energiya** bilan ta'minlashni maqsad qilgan. 2024-yil holatiga ko'ra, Amazon dunyo bo'yicha **500 dan ortiq quyosh va shamol elektr stansiyasi loyihalarini ishga tushirgan**, bu esa uni qayta tiklanadigan energiyaga eng katta korporativ investorlar qatoriga kiritadi.<sup>6</sup> Shuningdek kompaniya transport va logistika sohasida ham sezilarli natijalarga erishdi. Kompaniya **100 ming dona elektr yuk avtomobillarini** xarid qilish bo'yicha **Rivian** kompaniyasi bilan shartnoma tuzdi. Bu tashabbus natijasida AQSh va Yevropa bozorlarida **emissiyasiz yetkazib berish tarmog'i** kengaymoqda. Shuningdek, **“Shipment Zero”** dasturi doirasida Amazon o'z yetkazib berish operatsiyalarining 50 % ini 2030-yilgacha **“nol chiqindili”** tizimga o'tkazishni

<sup>5</sup> <https://sustainability.aboutamazon.com/2024-amazon-sustainability-report.pdf>

<sup>6</sup> <https://sustainability.aboutamazon.com/climate-solutions>

rejalashtirgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida kompaniya **o‘rmonlarni himoya qilish, landshaftlarni tiklash**, hamda **uglerod yutuvchi ekotizimlarni saqlash** loyihalarini amalga oshirmoqda. Amazon bu yo‘nalishda **LEAF Coalition** tashabbusiga qo‘shilib, tropik o‘rmonlarni himoya qilish uchun moliyaviy ko‘mak bermoqda.<sup>7</sup> Mahsulotlarni qadoqlash va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha ham bir qator texnologiyalardan foydalanib, plastiklardan voz kechib, qayta ishlanadigan va tabiatga, atrof-muhitga ta‘siri kam bo‘lgan qadoqlashga katta e‘tibor bermoqda. Amazon kompaniyasining bundan yashil iqtisodiyotdagi faoliyati tufayli, atrof-muhitda CO<sub>2</sub> izlarini kamaytirishga, balki global iqtisodiyotda yashil texnologiyalarni joriy etishga katta turtki berdi. Va shuningdek boshqa transmilliy korporatsiyalarga ham barqaror rivojlanish bo‘yicha na‘muna bo‘la oldi. Yana bir logistik transmilliy korporatsiya DHLni oladigan bo‘lsak.

DHL kompaniyasi 1969-yilda Adrian Dalsey, Larry Hillblom va Robert Lynn tomonidan AQShning San-Fransisko shahrida asos solingan. Kompaniya nomi ham ularning familiyalarining bosh harflaridan olingan: D (Dalsey) + H (Hillblom) + L (Lynn) = DHL. Dastlab DHL xalqaro hujjat va pochta tashish xizmati sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsa, hozirda u dunyoning eng yirik logistika tarmog‘i — Deutsche Post DHL Group tarkibida ishlaydi. U 220 dan ortiq davlat va hududlarda faoliyat yuritadigan dunyoning yetakchi logistik kompaniyalaridan biridir. DHL ham so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalda qo‘llashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Kompaniya 2050-yilgacha barcha operatsiyalarida **“net-zero” emissiya**, ya‘ni uglerod chiqindilarini butunlay yo‘q qilish maqsadini belgilagan. Bu maqsad sari yetib borish uchun DHL 2030-yilgacha **uglerod chiqindilarini 2020-yil darajasiga nisbatan 50%ga kamaytirishni** rejalashtirgan. Kompaniya yashil logistika konsepsiyasining yetakchilaridan biri bo‘lib, o‘zining **“GoGreen” dasturi** orqali mijozlarga ekologik toza transport yechimlarini taqdim etmoqda. Bu dastur yordamida kompaniya yetkazib berish yo‘nalishlarini

<sup>7</sup> <https://www.aboutamazon.com/planet/climate-pledge>

optimallashtirib, yoqilg‘i sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza qadoqlash materiallaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan. Ayniqsa, elektr va nol emissiyali transport vositalari joriy etilishi DHLning eng muhim yutug‘laridan biri bo‘ldi. Hozirda kompaniya dunyo bo‘ylab 30 000 dan ortiq elektr transport vositalari bilan faoliyat yuritmoqda, bu esa logistika sohasida ekologik ifloslanishni sezilarli darajada kamaytirgan. Germaniyada pochta va paket xizmatlarining 50 % dan ortig‘i past emissiyali yoki elektr transport vositalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, DHL aviatsiya sohasida ham ekologik innovatsiyalarni joriy etmoqda. Kompaniya 2022-yilda 830 million litr barqaror aviatsion yoqilg‘i (SAF) zahiralab, havo yuk tashish jarayonlarida an’anaviy yoqilg‘ilar o‘rniga ekologik toza alternativlardan foydalanishni boshladi. Shu bilan birga, DHL’ning ko‘plab omborlari va logistika markazlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tkazilgan hamda karbon-neytral binolar sifatida faoliyat yuritmoqda.<sup>8</sup> DHL ham o‘zining yashil iqtisodiyotdagi faoliyati bilan atrof muhitga befarq emasligini va yer yuzida atrof-muhit o‘zgarishlariga o‘zining ijobiy xissasini qo‘shim kelmoqda, bu birga yana boshqa TMK larga barqaror rivojlanish tamoyilida o‘rnak bo‘lmoqda. Bu aytib o‘tgan Amazon va DHL transmilliy korporatsiyalar logistika sohasini rivojlanishiga judda katta xissa qo‘shishgan, shu bilan birga hozirgi zamonaviy iqtisodiyotning bir turi bo‘lgan “Yashil” iqtisodiyotni qabul qilib, u orqali atrof-muhit bilan bog‘liq keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishdi. Va bu esa logistikada yangi termin va bo‘lim “Yashil” logistikani tashkil topishi va rivojlanishini o‘z xissalarini qo‘shishdi. Yashil logistikadagi faoliyatlari orqali nafaqat o‘zlari joylashgan hududda umuman global tovarlar almashinuvida ijobiy tomondan ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytganimizdek yuklarni eltish xizmatida elektro mobillar va yuk mashinlaridan va hozirda amazonning kichik eltuv xizmatlarida uchuvchisiz uchoqlardan ya’ni dronlardan foydalanishi atrof-muhitga chiqadigan CO<sub>2</sub> gazlari emissiyasini kamaytiradi. Hamda qadoqlashda ham plastik pakatlardan emas qayta ishlov bersa bo‘ladigan va qadoqlashda, yetkazib

---

<sup>8</sup> <https://group.dhl.com/en/media-relations/press-releases/2023/dhl-unveils-sustainability-milestones-at-industry-first-global-summit.html>



berishda chiqadigan chiqindilarni 0 ga tushirish maqsadi, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan holda qadoqlash ham ularni yashil iqtisodiyotdagi faoliyatlariga katta hissa qo'shadi. Eng dolzarblikka ega bo'lgan yashil energiya ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalariga va yashil bizneslarga loyhalarga homiylik va investitsiya kiritishi orqali boshqa sohalarni rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelishmoqda.

Bu "Yashil" logistika sohasi rivojlantirishimizda bizga to'siq bo'ladigan bir qator yo'nalishlar bor bular;

- Texnologik jarayon hamma logistik va TMK lar texnologiyalarini yashil texnologilarga tezkorlik bilan o'zgartira olmaydi va texnikalar yetishmaydi.
- Moliyaviy tomondan turli yetishmovchiliklar.
- Infratuzulmaviy cheklovlar.
- Hukumat olib boradigan siyosat kompaniyalarga mos kelmasligi.
- Xalqaro hamkorlikning zaifligi.

Mana shu bir qator kamchiliklar tufayli biz yashil iqtisodiyot yoki yashil logistikani jadal rivojlantira olmaymiz.

## **Xulosa**

Biz bu maqolada yashil logistik kompaniyalarning va ularning transmilliy korporatsiyalar faoliyatidagi roli bilan tanishdik. Yashil logistika tamoyillari hozirgi davrda transmilliy korporatsiyalar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu yondashuv global iqtisodiy tizimda ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya resurslarini tejash va transport jarayonlarining salbiy ekologik ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan bevosita bog'langan bu tizim korxonalar uchun nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki iqtisodiy samaradorlik manbai ham hisoblanadi. TMK lar xususan Amazon va DHL yashil logistika siyosatini



muvaffaqiyatli joriy etish orqali bu sohada o'zlarining yetakchi tajribalarini ko'rsatishmoqda. Bu kompaniyalarning yashil iqtisodiyotda qabul qilayotgan barqaror rivojlanish strategiyalari orqali transport jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanishni kengaytirishmoqda. Bu kompaniyalar misolida ko'rishimiz mumkinki, yashil logistika tamoyillari nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki uzoq muddatda xarajatlarni kamaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishni ham qo'llab-quvvatlaydi. Ammo hali-hamon bu soxada bir qator kamchiliklar mavjud, bular rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil texnologiyalarni joriy etishda mablag'larni va investitsiyalarni yetishmasligi, infratuzulmalarning zamonaviy standartlarga mos emasligi (misol uchun elektr avtomobillar uchun quvvatlash stansiyalarining yetishmasligi) tufayli yashil avtomobillardan faol foydalana olmaymiz. Hukumat chiqarayotgan yashil iqtisodiyotga doir huququqiy me'yorlar kompaniya siyosatiga mos emasli sababli bu yo'nalishning rivojlanishi haliham past. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun biz nimalar qilishimiz lozim, hukumat darajasida yashil iqtisodiyot va yashil logistika siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun soliq tizimida imtiyozlar va yashil grant va investitsiyalarni ko'paytirish va qo'llab-quvvatlash kerak. Xalqro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va yashil strartablarga keng yo'l ochish, hamda logistika infratuzimlarini modernizatsiya qilish, bunda elektr transportlar va qayta ishlash sohalariga sarmoyalar kiritish zarur. Eng asosiysi bu yo'nalishlarda yetuk malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish va aholi, jamiyat o'rtasida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish rivojlantirish o'ta muhimdir Xulosa qilib aytganda, TMK lar yashil logistika tamoyillarini joriy etishda global yetakchi rolni o'ynamoqda. Ularning tajribasini o'rganish va milliy miqyosda tatbiq etish hamda O'zbekiston uchun **ekologik barqaror iqtisodiy o'sish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro ekologik standartlarga mos rivojlanish** sari muhim qadam bo'ladi. Yashil logistika – bu nafaqat ekologik zarurat, balki kelajak iqtisodiyotining yangi strategik yo'nalishidir. Shuni yodda tutingki bu maqola yortilgan ma'lumotlar dengizdan bir tomchi holos, siz yashil logistika va TMK lar haqida yanada chuqurroq o'rganmoqchi bo'lsangiz yana boshqa manbaalarga

murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz. Biz o‘ylaymizki bu maqola orqali “Yashil” logistika bo‘yicha bilimlaringiz va tushunchalaringiz ortadi degan umiddamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://allcargo.market/uz/blog/post/what-is-logistics>
2. <https://yuz.uz/uz/news/yashil-logistika-nima-uchun-zaruratga-aylanmoqda>
3. file:///C:/Users/user/Downloads/YO'ITJ++1017%20(1).pdf
4. file:///C:/Users/user/Downloads/ZDAF+0112.pdf
5. <https://sustainability.aboutamazon.com/2024-amazon-sustainability-report.pdf>
6. <https://sustainability.aboutamazon.com/climate-solutions>
7. <https://www.aboutamazon.com/planet/climate-pledge>
8. <https://group.dhl.com/en/media-relations/press-releases/2023/dhl-unveils-sustainability-milestones-at-industry-first-global-summit>
9. Xalqaro iqtisodiyot [Matn]: darslik / Q.A. Isayev.- T.: «Ma'naviyat», 2021.- 456 bet.